Ekstremizm – bu ijtimoiy amaliyotning halokatli shaklini ifodalovchi siyosatshunoslik kategoriyasi bo‘lib, uning shakllari inson hayotining ko‘plab sohalarida uchraydi, shaxsni umuminsoniy va madaniy qadriyatlardan uzoqlashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

Radikalizm (lotin tilidan. Radix – ildiz) – siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ekstremal usullardan foydalanishga asoslangan ijtimoiy amaliyot turini ifodalovchi siyosatshunoslik kategoriyasi.

Ekstremizm va radikalizmning xavfi nimada? Davlat darajasida siyosiy ekstremizm va radikalizmning barcha shakllari xavfi milliy barqarorlik va xavfsizlikka haqiqiy tahdid hisoblanadi. Ekstremizm va radikalizm:

1. Davlat organlari va muassasalari ishiga to‘sqinlik qilish.
2. Saylovlar va ovoz berishda uzilishlar.
3. Irqiy, etnik va boshqa turdagi kelishmovchiliklarni qo‘zg‘atish.
4. Yosh avlodni boshqa ijtimoiy guruhlarga nisbatan nafrat va dushmanlik shaklida tarbiyalash.
5. Tarixni qasddan buzish, fashizm va natsizm g‘oyalarining tiklanishi.
6. Isyonlar, terrorizm, qo‘zg‘olon yoki fuqarolar urushi rivojlanishiga ko‘maklashish kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Панин В.Н. Религиозный экстремизм как один из факторов дестабилизации социально-политической жизни на Северном Кавказе. Пятигорск, ПГЛУ, 2013.

(2). Афанасьев Н.И. Идеология терроризма. Социально-гуманитарные знания. 2002, № 1.

(3). Ўзбекистон Республикасининг “Экстремизмга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни. URL. https://lex.uz/docs/3841957.

(4). Хлебушкин А.Г. Публичные призывы к осуществлению действий, направленных на нарушение территориальной целостности Российской Федерации. Москва, 2010, с. 2.

(5). Сергун Е.Р. Экстремизм в российском уголовном праве. Автореф. дис. ... канд. юрид. нау., Тамбов, 2009, с. 8.

(6). Ожегов С.И., Скворцова. Л.И. Толковый словарь русского языка. Москва, 2009, с. 340.

(7). Солодовников С.Ю. Большой энциклопедический словарь. Философия, социология, религия, эзотеризм, политэкономия, главн. науч. ред. и сост., Минск, 2002, с. 967.

(8). Резолюция 1344. Об угрозе для демократии со стороны экстремистских партий и движений в Европе. 29.09.2003 г. URL.https://www.un.org.agression

Alimov Sardor Komil o‘g‘li (O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; E-mail: sardoralimov2507@gmail.com)

RAQAMLI JAMIYATDA INTELLEKTUAL MIGRATSION JARAYONLARNING IJTIMOIY DETERMINANTLARI: FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida intellektual migratsiyani belgilovchi omillar faqat iqtisodiy faktorlar bilan izohlanmasdan, bilim, axborot, raqamli infratuzilma, institutsional ishonch, erkinlik, identiklik va ijtimoiy mas’uliyatning o‘zaro bog‘liqligi asosida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Tahlil natijasida intellektual migratsiyaning iqtisodiy, institutsional-siyosiy, ilmiy, infratuzilmaviy va aksiologik determinantlari bir-biri bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi, inson kapitali esa hududga tegishli resursdan ko‘ra raqamli tarmoqqa xos va transmilliy kapital sifatida namoyon bo‘lishi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli jamiyat, intellektual migratsiya, inson kapitali, intellektual kapital, raqamli ko‘chmanchilik, ijtimoiy determinantlar, transmilliy intellektual harakat.*

Алимов Сардор Комил угли (Старший преподаватель Правоохранительной академии Республики Узбекистан, доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент;
E-mail: sardoralimov2507@gmail.com)

СОЦИАЛЬНЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ПРОЦЕССОВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ МИГРАЦИИ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В данной статье факторы, определяющие интеллектуальную миграцию в условиях цифрового общества, объясняются не только экономическими факторами, но и анализируются с социально-философской точки зрения на основе взаимосвязи знаний, информации, цифровой инфраструктуры, институционального доверия, свободы, идентичности и социальной ответственности. В результате анализа обосновано, что экономические, институционально-политические, научные, инфраструктурные и аксиологические детерминанты интеллектуальной миг-*

рации проявляются во взаимосвязи друг с другом, а человеческий капитал выступает скорее как транснациональный капитал, присущий цифровой сети, чем как территориально привязанный ресурс.

Ключевые слова: *цифровое общество, интеллектуальная миграция, человеческий капитал, интеллектуальный капитал, цифровое кочевничество, социальные детерминанты, транснациональное интеллектуальное движение.*

Alimov Sardor Komil ugli (Senior Lecturer at the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences, Associate Professor; E-mail: sardoralimov2507@gmail.com)

SOCIAL DETERMINANTS OF INTELLECTUAL MIGRATION PROCESSES IN A DIGITAL SOCIETY: A PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation. *In this article, the factors determining intellectual migration in the conditions of a digital society are explained not only by economic factors, but are also analyzed from a socio-philosophical perspective based on the interconnectedness of knowledge, information, digital infrastructure, institutional trust, freedom, identity, and social responsibility. As a result of the analysis, it is substantiated that the economic, institutional-political, scientific, infrastructural, and axiological determinants of intellectual migration manifest themselves in interconnection with each other, and human capital emerges as a transnational capital inherent to the digital network rather than a territorially bound resource.*

Keywords: *digital society, intellectual migration, human capital, intellectual capital, digital nomadism, social determinants, transnational intellectual movement.*

Kirish. Insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida axborot va raqamli texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlarni, balki insonning borliqqa, makon va vaqtga bo‘lgan falsafiy munosabatini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Raqamli jamiyatning jadal shakllanishi an’anaviy industrial ishlab chiqarish munosabatlaridan bilim, axborot va kreativlikka asoslangan kognitiv kapital dominantligi asosida quriladigan taraqqiyot davriga o‘tishni ta’minlamoqda. Ushbu ijtimoiy-kognitiv transformatsiya sharoitida inson kapitali, xususan, uning intellektual salohiyati ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamda siyosiy taraqqiyotning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Bugungi kunda ijtimoiy hayotdagi turli tendensiyalar qatorida intellektual migratsiya jarayoni ham raqamli muhit, globallashuv, sun’iy intellekt, iqlim o‘zgarishlari, siyosiy jarayonlar kabi omillar ta’sirida o‘zgarib, global tus olib borayotganligi sir emas. Biroq raqamli makonning qat’iy hududiy va milliy chegaralarni tan olmasligi, virtual tarmoqlarning globallashuvi intellektual resurslarning misli ko‘rilmagan darajada faol va ko‘p vektorli migratsiyasini yuzaga keltirmoqda. Bu hodisa zamonaviy ijtimoiy falsafa va fan oldiga butunlay yangi savollarni qo‘yadi.

Raqamli jamiyatni oddiygina “internet keng tarqalgan muhit” deb ta’riflash yetarli emas. Yale universiteti professori L.Floridining “onlife” g‘oyasiga ko‘ra, bugungi sharoitda onlayn va oflayn hayot orasidagi ilgarigi aniq chegaralar yemirilib, inson tajribasi virtuallar va mavjud reallik orasida qayta quriladi; shu sababli diqqat, mulk, maxfiylik va mas’uliyat kabi kategoriyalarni ham qayta o‘ylash zarur bo‘ladi [1; 2–3-b.]. M.Castells va G.Cardoso esa tarmoq jamiyatida yangi turdagi xodim – tarmoqlarda ishlay oladigan va innovatsiya uchun markaziy bo‘lgan o‘zini o‘zi qayta dasturlay oladigan subyekt paydo bo‘lganini ko‘rsatadi [2;17–19-b.]. Demak, raqamli jamiyatda intellektual migratsiya faqat geografik ko‘chish emas, balki intellektual kapital tashuvchilarining tarmoq, platforma va institutsiyalar bo‘ylab harakati hisoblanadi.

Muammoning dolzarbligi migratsiya jarayonining global ko‘lami bilan ham tasdiqlanadi. BMT ma’lumotiga ko‘ra, 2024-yilda xalqaro migrantlar soni 304 millionga yetgan va ular jahon aholisining 3,7 foizini tashkil etgan [3;1–2-b.]. Shu bilan birga, UNESCO 2023-yil holatiga ko‘ra, xorijda ta’lim olayotgan talabalar soni qariyb 7,3 millionga yetganini qayd etadi [4]. Shuningdek, 2025-yil holatiga ko‘ra, dunyo aholisining qariyb to‘rtdan uch qismi Internet tarmoqlaridan foydalansada, 2,2 milliard kishi hanuz oflayn qolmoqda; demak, global mobilitetning raqamli asoslari o‘ta notekis taqsimlangan [5]. Bu ko‘rsatkichlar intellektual migratsiya endi faqat “internet orqali ish topish” emas, balki “global virtual tarmoqqa kirish”, “malaka tan olinishi” va “raqamli mehnat makoniga qo‘shilish” bilan belgilanishini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Intellektual migratsiya, uning genezisi va insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga ko‘rsatgan ta’siri turli davrlarda ko‘plab iqtisodchilar, sotsiologlar, siyosatshunoslar va faylasuflar tomonidan qizg‘in tadqiq etilgan. Biroq ilmiy-texnologik hamda raqamli inqiloblar natijasida jamiyat turmush tarzi o‘zgargani sari ushbu fenomenga nisbatan yondashuvlar ham evolutsion xarakter kasb etib kelmoqda.

Mavzuga tegishli mavjud adabiyotlarni shartli ravishda to‘rt guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh iqtisodiy va migratsiyani boshqarish bilan bog‘liq yondashuvlaridir. Mazkur yondashuv vakillari intellektual raqamli migratsiyada asosiy harakatlantiruvchi omillar sifatida donor va retsipiyent davlatlardagi ish haqi farqi, bandlik, yaxshi daromad va oila bilan bog‘liq ehtiyojlarni ko‘rsatadi [6], [7]. Ikkinchi guruh – strukturaviy-siyosiy tadqiqotlarga ko‘ra, notekis iqtisodiy rivojlanish, davlat xizmatlari sifati, tashqi aralashuv, huquq va erkinliklarning ustuvorligi, siyosiy barqarorlik va siyosiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyati, davlat idoralarining hisobdorligi kabi omillarga asosiy urg‘u beriladi [8]. Uchinchi guruh vakillari migratsiya siyosati va selektiv (saralash) mexanizmlarni o‘rganadi, ya’ni, bu yondashuv vakillari yuqori malakali kadrlar migratsiyasi uchun imtiyoz beruvchi tizimlar, diplomni tan olish, ijtimoiy ta’minot kelishuvlari, ish haqi va ishsizlik ko‘rsatkichlarining ahamiyatiga e’tibor qaratishadi [9]. To‘rtinchi guruh esa normativ va axloqiy yondashuv bo‘lib, unda intellektual migratsiya erkinlik, ijtimoiy adolat va axloqiy tanlov nuqtayi nazaridan talqin qilinadi [10], [11].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola empirik-statistik emas, balki ijtimoiy-falsafiy va konseptual-sintez xarakteridagi tadqiqot bo‘lib, fenomenologik tahlil, gnoseologik yondashuv, komparativ va sinergetik metod kabi metodologik asoslar orqali amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar. Raqamli jamiyatda intellektual migratsiyani to‘g‘ri tushunish, uni faqatgina tor ma’nodagi demografik siljish sifatida qabul qilmasdan, balki ko‘p qatlamli, o‘ta murakkab deterministik omillar tizimi tomonidan uzluksiz shakllantiriladigan ijtimoiy jarayon sifatida tahlil qilishni taqozo etadi. Bugungi migratsiya jarayonlari shaxsning borliqdagi mutlaqo yangi maqomi, innovatsion texnologik infratuzilma hamda global axloqiy qadriyatlar tizimiga bevosita bog‘lanib ketgan.

Sanoat inqilobi davrida inson kapitali ko‘proq jismoniy mehnat unumdorligiga, tayyor mexanizmlarni o‘zgartirishsiz boshqarish qobiliyatiga va berilgan buyruqlarni og‘ishmay bajarish intizomiga asoslangan edi. Biroq global axborotlashuv va raqamli muhit inson kapitaliga butunlay boshqacha maqom taqdim etdi. Bugungi kunda inson kapitalining asosi faqatgina nazariy ma’lumotlar bazasidan iborat emas, balki bu bilimlarni nostandart vaziyatlarda qo‘llay olish malakasi, uzluksiz o‘zgarishlarga moslashish imkoniyati, innovatsion g‘oyalar hamda original qiymatlarni yarata olish (evristik) salohiyatidir. Inson kapitali bu nafaqat amaliy ko‘nikmalar to‘plami, balki bilim birlamchi kapitalga aylangan iqtisodiyot sharoitida jamiyatning yangi sivilizatsiyaviy holatini ifodalovchi eng qimmatli resursdir [12;456-b.].

Raqamli davrda inson kapitali mutlaq nomoddiylashdi. U avvalgidek yirik zavod binolari, dastgohlar yoki moddiy resurslarga bog‘langan holda o‘lchanmaydi. Balki, asosan, kibermakondagi tarmoqlar, katta ma’lumotlar (big data) algoritmlari, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellekt tizimlari bilan integratsiyalashgan holda baholanadi. Inson kapitalining bunchalik abstrakt va raqamli ko‘rinish olishi muhim ontologik oqibatni keltirib chiqardi: mutaxassis o‘z miyasidagi qimmatbaho bilimlarni va kognitiv layoqatini qaysidir davlat chegarasini jismonan kesib o‘tmasdan turib ham, global bozorga to‘g‘ridan to‘g‘ri eksport qila oladigan yuksak darajaga erishdi. Axborotning o‘ta tez eskirish xususiyati esa insonni yashash uchun doimiy o‘rganishga, to‘xtovsiz intellektual o‘zgarishga, o‘z ustida tinimsiz ishlashga majbur qilmoqda.

Raqamli jamiyat shakllanishidan oldin an’anaviy intellektual mehnat ma’lum bir binoga, universitet laboratoriyasiga yoki korporativ ofisga qat’iy bog‘langan edi. Bu holatda insonni bir joyda, bir muassasada yoki bir davlatda biriktirib turuvchi qator institutsional omillar mavjud bo‘lgan. Xususan, ish beruvchining uzoq muddatli kafolatlari, pensiya ta’minoti, kasaba uyushmalari himoyasi, ijtimoiy nufuz kabi moddiy va ma’naviy omillar shular jumlasidan bo‘lgan. Ammo axborot inqilobi intellektual mehnatning tabiatidan uning materialistik va territorial chegaralarini o‘zgartirib yubordi. Asli polyak bo‘lgan britaniyalik professor Zigmunt Bauman (1925–2017) ta’biri bilan aytganda, mehnat jiddiy, o‘ta “qattiq” ijtimoiy tuzilmadan, mutlaq moslashuvchan, tez va “suyuq” loyihalarga asoslangan holatga o‘tdi. Omma ishtirokiga asoslangan kapitalizm (ingliz tilida “crowd-based capitalism”, raqamli platformalar vositasida keng foydalanuvchilar ommasining mehnat, mulk, bilim, vaqt yoki kapital resurslarini iqtisodiy qiymat yaratish jarayoniga jalb etishga asoslangan zamonaviy iqtisodiy model [13]) va frilanserlik formatidagi munosabatlar shaxsning uzoq muddatli kafolatlarga emas, balki qisqa, ammo serdaromad loyihalarga asoslangan faoliyatiga zamin yaratdi. Bu jarayon intellektual kapital sohiblarini to‘liq erkin, fazo va vaqtdan mustaqil, o‘ta mobil subyektlarga aylantirdi.

O‘z navbatida, savol paydo bo‘ladi: raqamli jamiyat sharotida intellektual migratsiyaning asosiy determinantlari sifatida aynan qaysi omillarni ko‘rsatish mumkin? Mazkur omillarni bir qancha determinantlar guruhiga ajratib tahlil qilishimiz mumkin:

– iqtisodiy determinantlar. Ba’zi tadqiqotchilarning fikricha, yuqori malakani xodimlar uchun ish haqi oshishi intellektual migratsiya oqimlarini kuchaytiradi, ishsizlik esa, aksincha, to‘xtatadi [9]. Biroq bu

omillarni sof iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida emas, “jalb qiluvchi ijtimoiy dunyo”ning belgilari sifatida tushunish kerak. Chunki yuqori maosh, ko‘pincha, institutsional ishonch, ilmiy-ijodiy erkinlik va intellektual mehnat qadri bilan birga taklif etiladi;

– institutsional-siyosiy determinantlar. Notekis iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda, davlat xizmatlarining sifati, siyosiy barqarorlik, qonun ustuvorligi va datlat idoralarining hisobdorlik darajasi intellektual migratsiyaga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [8]. Intellektual migratsiya ko‘pincha “erkin tanlov” bo‘lib ko‘rinsada, siyosiy beqaror muhit, korrupsiya yoki ilmiy faoliyatga nisbatan befarqlik sharoitida majburiy tanlovga aylanishi mumkin;

– ta’limga oid (ilmiy) determinantlar. Oliy ta’lim sifati va oldindan mavjud diaspora tarmog‘i xalqaro talabalar uchun kuchli “tortuvchi” omil ekani, yashash xarajatlari esa, aksincha, sekinlashtiruvchi rol o‘ynashi mumkin. [14]. Odatda, tadqiqotchilar yoki talaba, ko‘pincha, ko‘chish uchun mamlakatni emas, balki ta’lim va intellektual o‘sish uchun yaratilgan muhitni tanlaydi;

– infratuzilmaviy determinantlar. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda, taxminan, 170 million kishi mobil qamrovsiz yashayotgani, asosiy qiyinchilik, ayniqsa, kam daromadli mamlakatlarda to‘plangani, 5G qamrovi esa yuqori daromadli mamlakatlarda ancha yuqori, kam daromadli mamlakatlarda esa juda past ekani qayd etilgan [15];

– aksiologik (qadriyatli) determinantlar. Raqamli muhitda intellektual migrant faqatgina oylik maosh haqida o‘ylamaydi, balki u o‘zini to‘laqonli namoyon eta oladigan, o‘zini erkin his qila oladigan va o‘zi, yaqinlari yoki butun jamiyat uchun foydali va ezgulikka xizmat qiladigan makonni izlaydi. Bu esa identiklik, ijtimoiy obro‘, tan olinishi va o‘zini ro‘yobga chiqarish kabi aksiologik ehtiyojlarini determinant sifatida qabul qilishni talab etadi.

Xulosa va takliflar. Mazkur mavzu doirasida quyidagicha qisqa xulosalarni qilish mumkin: raqamli jamiyatda intellektual migratsiya olimlarning oddiy, jismoniy ko‘chishi emas, balki bilim, kognitiv mehnat va tarmoqli aloqalarning transmilliy harakatidir. U iqtisodiy farqlar, siyosiy institutlar, ta’lim sifati, universitet va laboratoriyalar, raqamli infratuzilma, diaspora tarmoqlari hamda erkinlik, identitet va mas’uliyat kabi aksiologik omillar bilan birgalikda shakllanadi. Demak, intellektual migratsiyani faqatgina bir o‘zakli determinantlar doirasida sodir bo‘ladigan hodisa sifatida izohlash yetarli emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Floridi L. The onlife manifesto: Being human in a hyperconnected era. Springer nature, 2015, p. 264.

(2). Castells M., Cardoso G. The network society: From knowledge to policy. Washington, DC: Johns Hopkins Center for Transatlantic Relations, 2006, p. 3–23.

(3). United Nations Department of Economic and Social Affairs. International Migrant Stock 2024: Key facts and figures. New York, United Nations, 2025.

(4). UNESCO. Number of students in higher education more than doubled in 20 years, but inequalities remain. Paris, UNESCO, 2026.

(5). International Telecommunication Union. Measuring Digital Development. Facts and Figures 2025. Geneva, ITU, 2025.

(6). Floridi L. The fourth revolution: How the infosphere is reshaping human reality. OUP Oxford, 2014, p. 245.

(7). Bhardwaj B., Sharma D. Migration of skilled professionals across the border: Brain drain or brain gain? European Management Journal, 2023, vol. 41, №. 6, p. 1021–1033.

(8). Vega-Muñoz A., González-Gómez-del-Miño P., Contreras-Barraza N. The determinants of brain drain and the role of citizenship in skilled migration. Social Sciences. 2025, vol. 14, № 3, p. 132.

(9). Czaika M., Parsons C.R. The gravity of high-skilled migration policies. Demography. 2017, vol. 54, №.2, pp. 603–630.

(10). Bou-Habib P. The brain drain as exploitation. Politics, Philosophy & Economics. 2022, vol. 21, № 3, pp. 249–268.

(11). Sager A. Brain drain, health and global justice. The International Migration of Health Workers: Ethics, Rights and Justice. London, Palgrave Macmillan UK, 2010, p. 103–117.

(12). Gaffarova G.G., Jalalova G.O. Human capital as the basis of society development. ISJ Theor. Appl. Sci. 2021, vol. 4, pp. 455–460.

(13). Kane G.C. Crowd-based capitalism? Empowering entrepreneurs in the sharing economy. MIT Sloan Management Review. 2016, vol. 57, №.3.

(14). Beine M., Noël R., Ragot L. Determinants of the international mobility of students. Economics of Education review. 2014, vol. 41, p. 40–54.

(15). World Bank. Digital Progress and Trends Report 2025: Strengthening AI Foundations. Washington, DC: World Bank, 2025.